

"Olmaliq KMK" AJ 2018 yil I chorak yakunlari

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini bajargan holda, "Olmaliq KMK" AJ tomonidan 2017 yil I choragi davomida tovar mahsulotlar ishlab chiqarish ta'minlandi:

- amaldagi narxlarda – 100,5 %;

- qiyosiy narxlarda – 100,8 %.

Tovar mahsulot chiqarish o'sish sur'ati 2017 yilga nisbatan qiyosiy narxlarda 102,0 % tashkil etdi.

Mis qazib olish belgilangan topshiriqqa nisbatan 98,8 %, mis mahsuloti ishlab chiqarish 106,2 %, shu jumladan o'z xom ashyosi hisobidan 100,0% tashkil etdi, rux metalli 91,5 %, shu jumladan o'z xom ashyosi hisobidan 100,0 %, sul'fat kislotasi 91,6 %, molibden uchokisi 103,5%, affinajlangan oltin 100,1 % va affinajlangan kumush 100,7 % tashkil etdi.

Mis xom ashyosini qayta ishlash topshiriqqa nisbatan 98,2%, o'sish ko'rsatkichi 104,3% tashkil etdi.

2018 yil I choragi davomida mahsulotlar 166% eksport qilindi.

2018 yil I choragi davomida "Uzb RTSB" AJ birja savdolari orqali mis mahsulotlari topshiriqqa nisbatan – 100,0%, rux metalli – 100,0%, portlandsement – 100,4% va IQAM quymasi – 100% sotish amalga oshirildi.

Ichki bozorni to'ldirish maqsadida kombinat topshiriqqa nisbatan qiymati 6,4 mlrd so'mlik (soliq hisobisiz) yoki 100,3 % xalq iste'moli mollari ishlab chiqardi, o'sish sur'ati 102,9 % tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2018 yildagi "2018 yil uchun investitsion va infrastruktura loyihalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3507-sonlin qaroriga asosan "Olmaliq KMK" AJ tomonidan xom ashyolarni qazib olish va qayta ishlash quvvatlarini oshirishga yo'naltirilgan 2 081,1 mlrd. so'mlik kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish rejalangan 6 ta loyiha amalga oshirilmoqda, shu jumladan:

O'z mablag'lari hisobiga – 348,2 mlrd. so'm;

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i – 1 234,9 mlrd. so'm;
Tijorat banklarining kreditlar – 498,0 mlrd. so'm.

2018 yil I choragida 694,4 mlrd. so'mlik investisiya o'zlashtirildi yoki istiqbolga nisbatan 103,6% tashkil etdi. Mablag'larni o'zlashtirish quyidagi tartibda amalga oshirildi:

№	Nomlanishi	Reja (mln. so'm)	Факт (млн.сум)	% вып.
1	Amaldagi "Qizil-olma" koni negizida "Samarcho'q" yer osti uchastkasini qurish	7,6	7,6	100,0
2	Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida sement zavodini qurish	526,5	526,7	100,1
3	"Yoshlik-I" konini o'zlashtirish	131,6	154,8	117,6
4	"Yoshlik-II" konini o'zlashtirish	4,5	5,3	118,2

5	Xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash uchun ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish (Qalmoqqir, Sari-cho`qqi, STYTB, ATB, MBF)	-	-	-
6	“Uch-kuloch” konini ochiq usulda o`zlashtirish	-	-	-
	JAMI	670,2	694,4	103,6

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2016 yildagi "2017-2019 yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-2698-sonli qaroriga binoan, "Olmaliq KMK" AJ umumiy qiymati 29,0 mld so`mlik 32 ta loyihani amalga oshirmoqda.

2018 yil I choragi davomida qiymati 17,5 mlrd. so`mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish bajarildi yoki istiqbolga nisbatan 127,0 % erishildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.02.2015 yildagi "2015-2019 yillarda tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to`g`risidagi" PQ-2298-sonli qaroriga asosan, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va tarmoqlavrar sanoat kopperatsiyasini 2018 yilda 24,5 mln. dollarga kengaytirish hisobiga importning yaxlit parametrlari qisqartirish ko`zda tutilgan.

2018 yil I choragi davomida bu ko`rsatkichning bajarilishi 5,3 mln. dollar yoki bashoratga nisbatan 101,5 %ni tashkil etdi.

2018 yil I choragi mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga oid texnik-tashkiliy chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan bo`lib, unga ko`ra mahsulotni tan narxi 7,5% kamaytirish ko`zda tutilgan.

2018 yil I choragi davomida ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish bo`yicha chora-tadbirlar majmuini bajarishdan kutilayotgan natija qiymati 5,5% topshiriqqa nisbatan 5,9 %, shu jumladan ishlab chiqarish tannarxi 4,8% topshiriqqa nisbatan 5,2 % tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2016 yildagi "Sanoat tarmoqlari korxonalarining jismoniy ishdan chiqqan va ma`naviy eskirgan mashina-uskunalarini jadal yangilash, shuningdek, ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida PQ-2692-sonli qaroriga muvofiq kombinat tomonidan 2018 yilda qiymati 22361,1 mln. dollarlik 360 ta texnologik jihozlar almashtirish va modernizatsiya qilish ko`zda tutilgan.

2018 yil I choragida qiymati 182,5 ming dollarlik 13ta texnologik jihozlar almashtirildi.

Kombinat tomonidan boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash va debitorlki va kreditorlik qarzdorliklarni kamaytirish monitoringini amalga oshirish bo`yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

01.04.2018 yil holatiga kutilayotgan debitorlik qarzdorlik muddati o`tgan qarzdorlik hosil bo`lmagan holda 340 mlrd. so`m, kreditorlki qarzdorlik esa 425,2 mlrd. so`m.

Kombinat budjet oldida va ish xaqi bo`yicha qarzdorlikka ega emas.

"Olmaliq KMK" AJ da 2018 yil uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, ularni bajarish hisobiga yoqilg`i-energiya resurslarini iqtisod qilishning kutilayotgan ko`rsatkichlar 2018 yil I choragida quyidagilarni tashkil etdi:

- elektrenergiyasi – 36,0 mln. kVt/s;
- yoqilg'i - 9,6 mln. m³;

Issiqlik energiyasi manbaalarini 9,9 mlrd. so'mga iqtisod qilindi.

"Olmaliq KMK" AJda alternativ energiya manbaa kengaytirish tadbirlari bajarilmoqda. 2018 yilda Ijtimoiy ob'ektlar boshqarmasining "Oltin-olma" pensionatiga 60 ta geliouskuna tadbiriq etish ko'zda tutilgan bo'lib, yiliga 0,2 mln. kVt/s elektroenergiyani iqtisod qilish imkonini beradi.

"Olmaliq KMK" AJda aksiyadorlik jamiyati boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda shu asosda ishlab chiqarish samaradorligi, mineral-xom ashyo bazasi va ishlab chiqarish quvvatlarini barqaror rivojlantirish, rudalar, rangli, qimmatbaho va nodir metallar, ichki-tashqi bozorlarda barqaror talab bo'lgan boshqa raqobatbardosh mahsulotlarni qazib olish va ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Olmaliq KMK" AJ boshqaruv tizimini kelgusida takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi (PQ-3280 15.09.2017y.) va u "Olmaliq KMK" AJ so'zsiz ijro etilishi belgilab olindi.

Korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarni chuqur o'rganish va maqsadga muvofiq joriy etilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasining korporativ boshqaruv bo'yicha ilmiy-o'quv markazi "Olmaliq KMK" AJ bilan birgalikda o'quv qo'llanmasni tayyorladi, o'zida aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha so'ngi yillarda qabul qilingan normativ-lokal hujjatlarini, korporativ boshqaruvning tarixi, korporativ boshqaruvning tamoyillari, horij davlatlarining jahon tajribaslarini, korporativ boshqaruv tizimini kelgusida rovojlantirish bo'yicha tavsiyalarni mujassam etadi.

2018 yil I choragida "Olmaliq KMK" AJ ning 3 nafar xodimlari Korporativ boshqaruv ilmiy-o'quv markazi tomonidan tashkillashtirilgan "Korporativ boshqaruv: joriy etilishi, tamoyillari va mexanizmlari" va "HR-personallarni boshqarish" kurslarida o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishga muvafaq bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyundagi № 207 sonli "Davlat ulushi bo'lgan aksionerlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga asosan "Olmaliq KMK" AJ Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Olmaliq KMK" AJ faoliyatini samaradorligini baholash asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida"gi qoidalarga ko'ra kombinatning 2017 yildagi faoliyati samaradorligini baholash o'tkazilgan. "Olmaliq KMK" AJning samaradorlik integral koeffitsenti (IKE) 2017 yil IV choragi yakuniga ko'ra 458,07%ni tashkil etdi (Agar IKE ko'rsatkichi 100 foizdan ortiq bo'lsa ijro organining samaradorligi yuqori baholanadi). O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi davlat aktivlarini boshqarish markazining rasmiy veb saytida natijalar joylashtirilgan.

Dasturga binoan 2018 yilda 820 yangi ish joylarini yaratish ko'zda tutilgan, shundan, sohani rivojlantirish 280 ta ish o'rni, investision dastura binoan 590 ta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

2017 yil I choragida 110 ta yangi ish o'rni tashkil qilindi, shundan, sohani rivojlantirish 54 ta ish o'rni, investision dastura binoan 56 ta ish o'rni yaratildi.

Ishchi-xizmatchilarni texnik o'qitish dasturiga muvofiq 1015 nafar va ikkinchi sohani o'zlashtirish maqsadida 663 nafar mutaxassis malaka oshirish kurslarini o'qishdi, hamda ishlab chiqarishdan uzilgan holda rahbarlardan va mutaxassislardan 748 kishi malakalarini oshirishdi va qayta tayyorlash kurslarida o'qitildi.

To'lov-shartnoma asosida 163 kishi o'qimoqda, shuningdek Rossiya Federasiyasi oliy bilim yurtlarida 146 kishi ta'lim olmoqda. Toshkent davlat texnika universitetining sirtqi va kechki bo'limlarida 111 kishi, hamda Navoiy davlat konchilik institutining sirtqi bo'limlarida 20 kishi tahsil olmoqda.

MISiS Milliy Texnologik Universiteti magistraturasida 13 nafar talaba ta'lim olmoqda.

"Olmaliq KMK" AJ o'ziga biriktirilgan yetita kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik qilish, bitiruvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish yuzasidan kooperasion aloqalarni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini bajardi. Chora-tadbirlarga binoan kombinat tarkibiy bo'linmalari tomonidan o'quv ustaxonalari va laboratoriyalarini jihozlash bo'yicha homiylik yordami ko'rsatilmoqda.

2018 yil I choragi davomida kombinat tarkibiy bo'linmalariga biriktirilgan kasb-hunar kollejlarning 1123 nafari shlab chiqarish amaliyotini o'tashdi. Shu vaqt davomida 586 nafar kolledj bitiruvchilari va 142 nafar Oliy o'quv yurti bitiruvchilari ishga joylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yildagi "Iqtisodiyotning real sektorlariga zamonaviy axborot-kommunikatsion tizimlar va dasturiy mahsulotlarni 2016-2018 yillarda tatbiq etishni rivojlantirish ustuvor vazifalari to'g'risida"gi PQ-2569 Qaroriga muvofiq iqtisodiyotning real sektorlariga zamonaviy axborot-kommunikatsion tizimlar va dasturiy mahsulotlarni 2016-2018 yillarda tatbiq etishni rivojlantirish bo'yicha "Olmaliq KMK" AJda umumiy qiymati 18,8 mld s'mlik 6 ta loyiha ko'zda tutilgan. Shulardan 2 ta loyiha 2018 yilning IV choragiga qadar amalga oshirish rejalashtirilgan:

1. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan Sement zavodini texnologik jarayonini avtomatlashtirish tizimini tadbqiq etish.
Ko'zda tutilgan qiymati: 11,6 mld. so'm.

Tizim sement ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilib turish imkonini beradi
Monosxema sifatida zavodning dispetcheriga texnologik jihozlarni jami ishlarni ma'lumotlar ko'rinishida kiritiladi, operator ish joyidan turib barcha texnologik jarayonini avtomatlashtirilgan holda boshqaradi, shuningdek ko'proq sifatli mahsulot ishlab chiqarishda energoresurs (gaz, elektrtoenergiya) harajatlarini qisqarishiga erishiladi.

2. "Samargo'g'" er osti konini avtomatlashtirish tizimini tadbqiq etish.
Ko'zda tutilgan qiymati: 3,4 mld. so'm.

Avtomatlashtirish tizimini asosiy texnologik jihozlarni parametrlarini avtomatlashtirilgan rejimda nazorat qilib boradi va avariyaning oldini olishda himoyani ta'minlaydi.

«Olmaliq KMK» AJda axborot-kommunikatsiyalarini joriy etish maqsadida rasmiy veb sayt yangilanib, barcha materiallar 3 ta tillar(o'zbek, rus, ingliz)da chop etib borilmoqda. Belgilangan tartibda axborotlar xavfsizligi ekspertizasi o'tkazib kelinmoqda.

AKT yo'nalishida minimal kompyuter savodxonligini bo'yicha 111,6 ming so'mlik harajat bilan 20 nafar xodim oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Amalda faoliyat yuritayotgan ma'lumotlarni uzatish bo'yicha simsiz tizimni modernizatsiyalash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. P'OC vaqtincha tadbqiq etish uchun ruxsatnoma qo'lga kiritildi. Ma'lumotlarni uzatish bo'yicha kombinatning olis korxonalaridan Ohak zavodi, Portlatuvchi moddalar ishlab chiqaruvchi zavodlari korporativ tarmoqqa ulandi. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni 2018 yilning II choragida yakuniga yetkazish rejalangan. Modernizatsiyalash olisda, yetib borish

murakkab bo'lgan tog'oldi nohiyalarda joylashgan bo'linmalar o'rtasida ma'lumotlarni uzatish tarmog'ining o'tkazish 60 Mbits/soatgacha oshirish ko'zda tutigan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida hamda fuqarolar "Olmaliq KMK" AJ faoliyatiga ta'luqli bo'lgan muhim masalalarda o'z fikrlarini bayon etishi va muhokama qilishi uchun "Mening fikrim" (<http://portal.agmk.uz>) axborot portal ishga tushitildi.

"Olmaliq KMK" AJ veb saytidagi yangiliklardan xabardor bo'lib turish maqsadida Internet tarmog'ida rasmiy Telegram messenger kanali ishlab chiqildi va ishga tushirildi.

"Olmaliq KMK" AJda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili» davlat dasturi doirasida beshta ustuvor yo'nalishlar bo'yicha 12,2 mlrd. so'mlik 39 ta tadbir ishlab chiqilib tasdiqlangan. 2018 yil I choragida 1,8 mlrd. so'mlik tadbirlar bajarildi.

2018 yil I choragida kombinat ishchi-xizmatchilarining ehtiyojini qondirish va shahar bozorini go'sht-sut va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'ldirish maqsadida:

Go'sh mahsulotlari – 15 t;
Sut mahsulotlar – 504 t.

Yuqori turuvchi tashkilotlarning topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish va ijro intizomi tizimini takomillashtirish maqsadlarida "Olmaliq KMK" AJ Ijro apparati tarkibida(2017 yil 26 aprelidagi № 322 buyruq) Yuqori turuvchi tashkilotlar topshiriqlari bajarilishini nazorat qiluvchi xizmat tashkil etilgan va ijro intizomi holatini tanqidiy baholab borish tizimi joriy etilgan.

O'tgan davr mobaynida hujjatlar hisoboti va ularni o'rnatilgan muddatlarda ijro etilishini nazorat qilishni tashkil etish, joylarda Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, Hukumat qarorlari ijrosining borishini o'rganish tizimini joriy etish bo'yicha muayyan ishlar olib borildi, kombinat ish rejasiga binoan tahliliy ma'lumotnomalar rasmiylashtirilgan holda bayonnomalar tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 aprelidagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshirig'lari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomi mustahkamalanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida"gi PQ-2881-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasi, Davlat boshvaruv va xo'jalik organlari, Qoraqalpog'izton Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, rayon va tumanlar hokimlariga intizimoiy jazolarni qo'llash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 10 mayda tasdiqlangan №264 nizomga asosan "Olmaliq KMK" AJ lavozim rahbarlariga intizimiy jazo choralari qo'llash tartiblari to'g'risida" qoidalar tasdiqlangan va joriy etilgan.

Ichki qarorlar ijrosini tanqidiy tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish yuzasidan muayyan ishlar olib borilmoqda.

2018 yil I choragi davomida "Olmaliq KMK" AJ jami rasmiylashtirilgan aktlar 287 ta bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2 ta Farmoni, 11ta Qarori, 1 Farmoyishi, 3 ta topshirig'I hisoblanadi. 237 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari, 86 ta Bosh vazir va o'rinbosarlarining topshiriqlari, 103 ta ATD Vazirlar Mahkamasining topshiriqlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirilgan hujjatlar (32 ta) umumiy hisobda 25 ta qarorlar qabul qilindi, shu jumladan 23 ta buyruq va 2 ta kompleks chora-tadbirlar hisoblanadi.

Aholi bilan ochiq muloqotni ta'minlash, murojatlarni batafsil o'rganish va masalalarni ijobiy hal etish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish komissiyasi tashkil etilgan. Har kuni aholi qabuli tashkil qilingan.

2018 yil I choragida 991 ta murojaatlar kelib tushdi, shundan 274 ta yozma va 311 ta og'zaki, 406 ta elektron manzil orqali kelib tushgan murojaatlar. 78 ta ariza bo'yicha chora ko'rildi, 848 ta ariza bo'yicha tushuntirildi, 13 ta qaytadan murojaat qilganlar, 43 ta ariza ko'rib chiqilmoqda va 11 rad etildi.

Arizalar mazmuni - moddiy yordam ko'rsatish, ishga joylashish, davolanish hamda uy-joy kommunal savollari, ishqa qayta tiklanish va kombinatning boshqa sexlariga ishga o'tish, hamda transport muammolari va boshqalar.